

**FE'L ZAMONLARINING QIYOSIY TAHLILI:
ARAB VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA**

Sultonova Nodiraxom Erkinjon qizi

Farg'ona davlat universiteti chet tillari fakulteti

1-bosqich talabasi. +99893 048-06-56

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab va ingliz tillaridagi fe'l zamonlari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilinadi. Har ikkala tilda zamon tushunchasining ifodalanish uslubi, grammatik shakllanishi va mantiqiy qo'llanilishi o'zaro solishtiriladi. Arab tili morfologik tili bo'lsa, ingliz tili analitik tusga ega bo'lganligi sababli, zamon ifodalashda har xil yondashuvlar yuzaga keladi. Mazkur maqolada aynan shu farqlar asosida ikki til o'rtasidagi zamon tizimi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Arab tili, ingliz tili, fe'l zamonlari, qiyosiy tahlil, grammatik tizim, morfologiya, sintaksis.

Kirish. Har bir tilning zamon tizimi uning grammatik tuzilmasi va mantiqiy fikrlash uslubi bilan chambarchas bog'liqdir. Arab va ingliz tillari bu borada o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilda zamonlar ko'plab grammatik shakllar orqali ifodalanadi va bu holat tilning analitik xarakterini namoyon etadi. Arab tilida esa zamonlar asosan fe'lning ildizi va vaznlari orqali ifodalanadi, bu esa morfologik yondashuvning ustuvorligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada ushbu ikki til tizimidagi fe'l zamonlari tahlil qilinadi, ularning o'xshash va farqli jihatlari yoritiladi hamda til o'rganuvchilarga yondashuvlar taklif etiladi.

Arab tilida fe'l zamonlari sodda, ammo murakkab morfologik qurilmalarga asoslangan tizimni tashkil etadi. Arab tili flektiv (ya'ni o'zgartirishga asoslangan) til bo'lib, unda zamon tushunchasi asosan fe'lning vazni, asl ildizi, va avj shakllari orqali ifodalanadi. Ushbu tilda uch asosiy zamon mavjud: mazi (o'tgan zamon), mudori' (hozirgi va kelasi zamon), va amr (buyruq shakli). Bu zamonlar o'zaro kontekstual mantiqqa asoslanadi.

✓ Mazi (الماضي) – o'tgan zamon

Bu shakl bajarilgan yoki yakunlangan harakatni ifodalarydi. Morfologik jihatdan fe'l ildiziga maxsus qo'shimchalar va harakatlar qo'shiladi. Misol: Kataba (كتب) – U (erkak) yozdi. Katabat (كتبت) – U (ayol) yozdi. Mazi shakli arab tilida nihoyatda barqaror va har bir shaxs-son bilan maxsus morfologik ko'rinishda ishlataladi.

✓ Mudori' (المضارع) – hozirgi va kelasi zamon

Mudori' shakli hozirgi va kelajakdagi harakatni anglatadi. Ingliz tilidan farqli o'laroq, bu shakl bir necha kontekstda ishlataladi va o'zidan oldin yoki keyin kelgan so'zlar bilan harakat vaqtini aniqlashtiradi.

Yaktubu (يكتب) – U (erkak) yozmoqda yoki yozadi

Taktubu (تكتب) – U (ayol) yozmoqda yoki yozadi

Mudori' zamon fe'llari ba'zan qad (قد), sawfa (سوف) yoki sa- (س) qo'shimchalari orqali aniqroq ma'no kasb etadi:

Sawfa yaktubu (يكتب سوف) – U yozadi (yaqin kelajakda). Qad yaktubu (يكتب قد) – Ehtimol u yozadi

❖ Amr (الأمر) – buyruq shakli. U ikkiga bo'linadi: 1.amri hozir va 2.amri g'oib.

Amr hozir faqat ikkinchi shaxs uchun ishlataladi va faqat hozirgi yoki kelajakdagi harakatni buyuradi.

Uktub! (أكتب) – Yoz! (erkakka)

Uktubī! (أكتبني) – Yoz! (ayolga).

Amri g'oib esa uchinchi va birinchi shaxslarda ishlataladi. Masalan: yozsin, yozay kabi.

Muhim eslatma: arab tilida vaqt tushunchasi ko'proq mantiqiy kontekst orqali aniqlanadi. Ya'ni, ba'zan mudori' shakli bilan o'tgan zamon anglatilishi mumkin, agar kontekst shunga mos bo'lsa. Bu esa arab tilining semantik jihatdan chuqur va kontekstga boy til ekanini ko'rsatadi. Yondashuvning o'ziga xosligi: arab tili zamon ifodalashda: o'zgarmas zamonlar soni (3 ta) bilan sodda tizim yaratadi, shaxs-son bilan alohida fe'l shakllari ishlataladi, kontekstga tayanish kuchli bo'lib, bir fe'l bir nechta vaqt ni anglatishi mumkin.

Ingliz tili – analitik til bo'lib, unda fe'l zamonlari yordamchi fe'llar, modal fe'llar, va fe'lning o'zgaruvchan shakllari orqali ifodalanadi. Arab tilidagi uchlik zamon tizimidan farqli o'laroq, ingliz tilida zamonlar tizimi murakkabroq bo'lib, asosiy 3ta zamon va uning 12 ta shakli mavjud. Bu tizim harakatning nafaqat vaqtini, balki uning davomiyligi, yakunlanganligi, va ko'p takrorlanganligini ham aniq ifodalaydi.

❖ Asosiy zamonlar guruhi:

O'tgan (Past) I worked I was working I had worked I had been working

Hozirgi (Present) I work I am working I have worked I have been working

Kelajak (Future) I will work I will be working I will have worked I will have been working. Simple Tenses (Oddiy zamonlar), Past Simple: I worked yesterday. (Men kecha ishladim.) Present Simple: I work every day. (Men har kuni ishlayman.) Future Simple: I will work tomorrow. (Men ertaga ishlayman.) Bu zamonlar umumiy harakatni bildiradi, kontekst bilan harakat vaqtini aniqlanadi. Continuous Tenses (Davomli zamonlar): Past Continuous: I was working when you called. (Sen qo'ng'iroq qilganingda men ishlayotgan edim.) Present Continuous: I am working now. (Hozir ishlayapman.) Future Continuous: I will be working at 5. (Soat 5da ishlayotgan bo'laman.) Davomli zamonlar harakatning uzoq davom etganini bildiradi. Perfect Tenses (Yakunlangan zamonlar): Past Perfect: I had worked before

she came. (U kelishidan oldin men ishlagan edim.)Present Perfect: I have worked for 5 years. (Men 5 yildan beri ishlayman.)Future Perfect: I will have worked 10 years by next year. (Kelasi yilgacha men 10 yil ishlagan bo‘laman.)Bu zamonlar harakatning oldin tugaganini yoki natijasini ko‘rsatadi.Perfect Continuous Tenses (Yakunlangan davomli zamonlar):Present Perfect Continuous: I have been working since morning. (Ertalabdan beri ishlayapman.)Past Perfect Continuous: I had been working for hours before the power went out. (Chiroq o‘chishidan oldin soatlab ishlagan edim.)Future Perfect Continuous: I will have been working for 3 hours by noon. (Tushgacha 3 soat ishlayotgan bo‘laman.)Bu zamonlar harakatning qancha davom etganini va natijasi muhimligini bildiradi.Ingliz tilining zamon yondashuvi tafsilotga boy, ya’ni harakatning boshlanishi, davomiyligi va tugashi aniq ko‘rsatiladi.Yordamchi fe’llar ishtirok etadi: be, have, will, do kabi.Doimiy va takroriy harakatlar ham ko‘zda tutiladi.

Grammatik vositalarning xili va roli: Arab tilida fe’l ildizi va harakatlar orqali shaxs va zamon belgilanadi. Masalan: Kataba (u yozdi), Yaktubu (u yozmoqda).Ingliz tilida esa yordamchi fe’llar vositasida aniqlik kiritiladi: He wrote, He is writing, He has written, He had been writing. Kontekstga bog‘liqlik darajasi :Arab tilida fe’lning o‘zi yetarli bo‘lgan hollarda ham, kontekst harakatning vaqtini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.Yaktubu – hozirgi zamon ham bo‘lishi mumkin, kelajak ham (agar "sawfa" yoki "sa-" bilan ishlatilsa).

Ingliz tilida esa harakatning aniq vaqtini fe’l strukturasi bilan belgilab qo‘yiladi. Misollar orqali bevosita taqqoslash:

O‘tgan (U xat yozdi) الرسالة كتب هو . He wrote the letter

Hozirgi (U hozir yozmoqda) الآن يكتب هو . He is writing now

Kelajak (U ertaga yozadi) غداً يكتب سوف . He will write tomorrow

Harakat natijasi (U xatni yozib bo‘lgan) الرسالة كتب قد He has written the letter

Uzoq davom etgan harakat (Men kelganimda u yozayotgan edi) جئت عندما يكتب كان He was writing when I came.

Xulosa qilib aytadigan bo’sak,.Arab va ingliz tillaridagi fe’l zamonlari har ikki tilda til tuzilmasiga xos holda shakllangan. Arab tilida zamonlar kam sonli, ammo morfologik jihatdan boy bo‘lsa, ingliz tilida zamonlar ko‘p shaklli va analitik tusga ega. Arab tili harakat vaqtini asosan kontekst orqali, ingliz tili esa aniq grammatik shakllar orqali ifodalaydi. Bu holat ikki til o‘rganuvchilari uchun alohida metodik yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir til zamonni ifodalashda o‘zining ichki qonuniyatlariga ega bo‘lib, uni to‘g‘ri anglash va qo‘llash uchun chuqur tahlil va amaliy mashqlar zarur. Shuningdek, bu farqlar tarjima, til o‘rgatish, va lingvistik tadqiqotlar jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva M. Ingliz tili grammatikasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B. 115.
2. Al-Ani S. Arabic Phonology: An Acoustical and Physiological Investigation. – The Hague: Mouton, 1970. – P. 189.
3. Al-Khuli M.A. A Contrastive Grammar of English and Arabic. – Riyadh: Dar Al-Murabbi, 2005. – P. 212.
4. Azimova N. Zamonaviy arab tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 180.
5. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: CUP, 2010. – P. 485.
6. G‘aniyeva S. Arab tili grammatikasi (I qism). – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. – B. 150.
7. Karimov Z. Ingliz va o‘zbek tillari grammatikasining qiyosiy tahlili. – Samarqand: Zarafshon, 2018. – B. 130.
8. Mahmoud A. Interlanguage and the Notion of Arabic Interference. – Cairo: Nile Valley Press, 2011. – P. 94.
9. Oxford, R.L. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. – Boston: Heinle & Heinle, 1990. – P. 208.
10. Richards J.C., Schmidt R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. – London: Longman, 2010. – P. 544.
11. Yuldasheva D. Qiyosiy tilshunoslik asoslari. – Farg‘ona: FarDU nashriyoti, 2022. – B. 98.